

1920-1924 YILLARDAGI XORAZM XALQ SOVET RESPUBLIKASINING MAORIFI

Tillayev Dilmurod Ollaberganovich

Urganch Davlat Universiteti akademik litseyi tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Xorazm davlatchiligida alohida o'rin tutuvchi 1920-1924-yillardagi Xorazm Xalq Sovet Respublikasining madaniy – ma'rifiy hayoti, ilm – fan, maorifi haqida malumot berilgan.*

Kalit so'zlar: *XXSR, Xorazm Xalq Sovet Respublikasi, davlat, Xiva xonligi, tarix, qurultoy, fan, ta'lim, o'qituvchi, maktab, tashkilot, yoshlar, adabiyot, teatr, to'garak.*

Uch ming yillik davlatchilik an'analariga ega bo'lgan o'zbek xalqi tarixida Xorazm davlatchiligi alohida o'rin tutadi. Xiva xonligi va 1920 yil aprelda tashkil topgan XXSR (Xorazm Xalq Sovet Respublikasi) O'rta Osiyo va Qozog'istonning yangi tarixi davri davlatchiligida mintaqada sezilarli iz qoldirgan.

Bugungi kunda Respublikada olib borilayotgan tarixiy tadqiqotlar yo'nalishida XX asrda sodir bo'lgan siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlarning tarixini o'rganish muhim o'rin tutadi. O'zbek xalqi davlatchiligi tarixi konsepsiyasi loyihasida o'zbek davlatchiligi tarixini xolisona, haqqoniy yaratish maqsad qilib qo'yilgan bo'lib, unda "o'zbek xalqining chor Rossiyasi mustamlakachiligi va sho'rolar istibdodi davridagi iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ma'naviy ahvoriga xolisona baho berish" alohida qayd qilingan. Shuningdek, Xorazmdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar tarixiga oid manbalarni bir tizimga solish, hozirgi zamon talabidan kelib chiqib, ularni yangicha yondashuv asosida o'rganish va ilmiy muomalaga kiritish hamda bu yo'nalishda ilmiy xulosalar berish ham dolzarb masala ekani ko'rinadi.

1920 yil 26-30 aprel kunlari Xivada Butunxorazm xalq vakillarining birinchi qurultoyi bo'lib o'tadi. Qurultoyda ishtirok etgan 200 ta vakilning 80 tasi turkman aholisi vakillari edi. Qurultoyda Xiva xonligi hududida Xorazm Xalq Sovet Respublikasi tuzilganligini e'lon qilib, XXSR konstitutsiyasi, davlat gerbi va bayrog'i tasdiqlandi. Gerb markazida bir bog'lam oq jo'xori ustiga bir-biriga chalishtirib qo'yilgan o'roq va bolg'aning rasmi ham solingan edi. Gerbning yuqori qismida besh qirrali yulduz bilan yarim oy surati aks ettirilgan. Davlat bayrog'i qizil rangli matodan ishlangan bo'lib, uning chap burchagi yashil rangda bo'yalgan va shu fonda davlat gerbi ham aks ettirilgan edi.

Respublika davrida Xorazm madaniy rivojlanish sohasida ro'y bergan yangiliklar haqida, jumladan yangi tipdagi maktablar, semenariya va internatlar hamda o'qituvchilar tayyorlash va savodsizlikni tugatish kurslari ochildi. Yosh avlodni o'qitish, buning maorifini joriy qilish uchun shart-sharoitlar yaratish sa'yi-harakatlari xalq ommasi, uning ilg'or vakillari uchun dolzarb bo'lib kelgan.

Ma'rifatparvar olim, pedagog, jamoat arbobi Abdulla Avloniy (1878—1934) maktab masalasi, ya'ni «tarbiya bizlar uchun yo hayot mamot, yo najot, yo saodat-yo falokat masalasidir», deb ta'kidladi. Bu jami o'zbek ziyolilarining e'tiqodi, qarashi bo'ldi. Ular yangi maktablar ochish, o'quv-tarbiya ishlarini rivojlantirish, internatlar tuzib yetim bolalarni to'plash, muallim, tarbiyachilarni tayyorlash ishlariga faol kirishib ketdilar. Tashkil bo'lgan maktablar, ayniqsa, qishloq joylarida va tumanlarida asosan 1-2 boshlang'ich sinflardan iborat edi. Keyinchalik yuqori sinflar paydo bo'lib bordi. 1920-yillar boshida Xorazmda Safo Mug'anniy mudirlik qilgan maktab, 1922 yilda Xiva shahrida ochilgan ikkinchi bosqich maktab, qator boshqa maktablar shular jumlasidan edi. Milliy jadid maktablari uchun darsliklar, o'qish kitoblarini ziyolilarimiz asr boshidan yozib chiqarib keldilar.

1917 yildan maktablar sonining o'sishi, maorif ijtimoiy darajasining ko'tarilishi darsliklarga talabni oshirdi. 1920 yil Xorazmda birinchi marta may bayramining nishonlanishi, 1921 yil O'rta Osiyoda birinchi bor Xorazm xalqlari birodarlik bayramining o'tkazilishi, 1922 yil Xiva shahrida O'rta Osiyoda birinchi davlat teatrining tashkil qilinishi, 1923 yil Xorazmda xalqaro yoshlar kunining nishonlanishi kabi voqealar siyosiy hayotda tarixiy voqealardan bo'ldi. 1921-1922 yillar Xorazm yoshlar uyushmasi bilan qo'shni Amudaryo viloyati yoshlar uyushmasi tashkiloti o'rtasida kuchli hamkorlik o'rnatilgan davr bo'ldi. A.T. Peskunov, Muhammadnazar Odamov, Qurbon Beregin, Soib Nazariy, Ro'zmat Yusupov, Kutlimurod Mahmudov kabi yoshlar, uyushma faoliyatida katta rol o'ynadilar. Xorazm vohasi yoshlari Volga bo'yi xalqlari hayotida yuz bergan ochlik mahalliy voqea bo'lib qolmasdan hammani o'ylantiradigan va harakatga keltiradigan voqea ekanini birinchilardan bo'lib anglab yetishdi. 1922 yil 3 mayda yoshlar o'rtasida musika, adabiyot, sport to'garaklari ish boshlaganini hisobga oldilar. Ko'chmanchi qozoq, turkman yoshlarini siyosiy hayotga tortish muhim masala qilib qo'yildi.

1923 yil 28 yanvarda Xorazm xotin-qizlari uchun alohida maktablar tashkil qilish masalasi ilgari surildi. Shu yili Xorazmda xotin-qizlar uyushmasi tashkil qilinib, unga rahbar qilib Xayrulbanot Saydoshova saylandi. Xotin-qizlar uyushmasi masalasi 1923 yil 11 noyabrda Xorazm kompartiyasi Markaziy Komiteti huzuridagi partiya yacheykasi majlisida muhokama qilindi. Shunday qilib, asrlar davomida siyosatdan chetlanib kelingan Xorazm xotin-qizlari xalq xo'jaligining deyarlik barcha sohalariga ishga jalb qilina boshladilar. Xotin-qizlarning xalq xo'jaligi ishlariga jalb qilinishida ba'zi qiyinchiliklarni yengib o'tishga to'g'ri kelgan bo'lsa ham bu siyosat ijobiy rol o'ynadi. Chunki ishlab chiqarish sohasida va madaniy hayotda ularning o'rni ham alohida ahamiyat kasb qiladi.

Hukumat madaniy-ma'rifiy va sog'liqni saqlash ishlariga ham katta e'tibor qaratdi. 1920-yil bahorida Respublikada yangi tipdagi maktablar tashkil qilina boshlandi. 1921-yil sentabrida Xivada ochilgan xalq dorulfununi respublika madaniy hayotida katta voqea bo'ldi. 1924 yil o'rtalariga kelib Xorazmda 40 ta umumta'lim

maktablari va internatlarda 2600 bola ta'lim-tarbiya oldi. Respublika davrida Xorazm madaniy rivojlanish sohasida ro'y bergan yangiliklar haqida, jumladan yangi tipdagi maktablar, semenariya va internatlar hamda o'qituvchilar tayyorlash va savodsizlikni tugatish kurslari ochildi. 1924 yilda Hazorasp, Qo'shko'pir, Yangiariq, Shovot tumanlarida yangi mehnat-ish maktablari, Urganchda fabrika – zavod ta'lim maktablari ochildi. 1923- yilda Xiva, Urganch, Qoramon, Go'ja, G'oybu, Durgadik, Yangibozor, Eshonbozor, Qorayantoq, Tozabozor, Chig'atoy, Mingbog'olon, Do'simboy, Qilichboy kabi shahar va qishloqlarda ham qo'shimcha ravishda mehnat – ish maktablari faoliyat boshladi. 1923-1925 o'quv yilida 15 ta diniy maktab qayta tashkil etilib yangi usul maktabiga aylantirildi. Undan tashqari bir qancha o'rta maxsus o'quv yurtlari, jumladan, musiqa maktabi, pedagogika bilim yurti, xotin – qizlar pedagogika texnikumi, qishloq – xo'jalik texnikumi va boshqa o'quv maskanlari ham faoliyat ko'rsatib turdi. Keyinchalik XXSR tugatilganidan keyin vohadagi barcha diniy maktablar tugatilib, ularning o'rnini sovet maktablari egalladi. XXSR tugatilganidan keyin Sovet hokimiyati davrida Xorazmda maktablar va ulardagi o'quvchilar soni ham ko'payib bordi. Respublikada yosh avlodni milliy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda, yoshlarni har tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalashda teatrlarning ham roli beqiyosdir. Shuning uchun ham XXSRda teatrlarni tashkil etishda, eskilarini ta'mirlashga alohida hukumat darajasida e'tibor berilganki, bu keyinchalik o'z natijasini berdi. Xorazm okrugi Ijroiya Qo'mitasining 1927 hisobotida ko'rsatilishicha 1923 yilda Xorazm davlat byudjeti hisobida 5 ta klub, bitta teatr faoliyat ko'rsatgan. Klublar qoshida musiqa dramatik to'garaklari ishlab turgan.

Xorazm viloyati partiya arxivi fondlarida saqlanayotgan hujjatlarda uchta dramatik, musiqa va bitta xor to'garagida 107 ta havaskor va xalq san'atkorlari ishtirok qilganliklari ta'kidlanadi. O'sha 1923 yilning faqat may oyidagina Urganch shahar badiiy havaskorlik to'garaklari kuchi bilan 23 ta konsert berilganligi xabar etiladi.

Xorazm okrugi Ijroiya Qo'mitasi 6 sentabr 1923 yilda “Barcha teatr jamoalarini, kinoteatrlarni mahalliy soliqlardan ozod qilish” to'g'risida qaror qabul qildi. Bu qaror Respublikadagi barcha teatr to'garaklarining faoliyatini yanada jonlantirib yubordi. Xivadagi hukumat teatri, “yoshlar sayyor teatri”, pedagogika bilim yurti qoshida tuzilgan havaskorlar to'garagi, Urganch shahridagi 1-may klubi va “Qizil Oktyabr” zavodi qoshidagi teatr uyushmalari Xorazmning iste'dodli kishilarini birlashtirdi va ular keyinchalik xalq teatri faoliyatida faol ishtirok qildilar. O'sha davrda Xorazmda ikkita - Urganch va Xiva xalq teatrlari shakllangan va faoliyat ko'rsatayotgan edi. Har bir tumanda truppalar, klublar qoshida havaskorlik to'garaklari muntazam ishlab turdilar.

Xalq teatrlari ijodkorlari Matyusuf Xarratov-Chokar, Safo Mug'anniy, Komil Devoniy, Matyoqub Otajonov, Hojixon Boltayev, Ahmadjon Kazanskiy, sahna ustasi Abdulla Ismoilov, Xudoybergan Devonov, Onabibi Safayeva va boshqa mashhur san'atchilar dramatik to'garaklarining ishlariga ham rahbarlik qildilar. Bu davrda Urganch davlat teatri artistlar, ashulachilar va raqqosalar tayyorlash maktabi bo'ldi.

Bular orasida Bibijon Devonova, Matniyoz Yusupov, Mahmudjon Safayev, Qalandar Boyjonov, O'razgul G'oiptovalarning ijrochilik san'atini alohida qayd qilib o'tish mumkin.

Safo Mug'anniy Xorazm xalq qo'shiqlari negizida bir qancha asarlar yaratdi. U ham musiqachi, ham ashulachi, ham shoir edi. Chokar va B.Rahmonov hamkorlikda "Xorazm musiqasi tarixi" nomli kitob yozib, 1923 yilda Moskvada nashr etadi. Bu davr Xorazm adabiyotida xonlik davri an'analari davom etdi. Shu bilan birga voqelik bilan bog'liq bo'lgan yangi mavzular kelib chiqdi. Yer – suv islohoti, xotin- qizlar ozodligi, jamoa xo'jaligi va ozod mehnatni kuylash san'tkorlar oldidagi birinchi vazifalar bo'lib qoldi. Madaniy inqilob bilan bog'liq bo'lgan masalalar keng ko'lamda yoritildi. Bu davrda Xorazm Respublikasida ko'rilmagan proza va dramaturgiya janrlari paydo bo'ldi. Hajviyot keng ko'lamda rivojlandi.

Bu davr adabiyotida yangi kuchlar kirib keldi. Qurbon-ota Ismoilov, Partav, Qurbon Beregen, Umar Qurboniy, Soib Nazariy, Sharif Ollayorov, Said Nazar, Ahmad Bobojon, Yunus Yusupov, Madamin Yoqubov kabi yoshlar shular jumlasidandir. Bular Respublikada proletary yozuvchilarning birinchi adabiy tashkiloti "Qizil Qalam"ni vujudga keltirdilar. Xorazmda tashkil etilgan adabiy tashkilotda yoshlar bilan birga keksa bo'g'inga mansub bo'lgan Safo Mug'anniy, Komil Devoniy, Rog'ib, Qurbon ota Ismoilov, Nuriddin Qalandarov kabi shoirlar ham birlashdilar.

XX asr boshida san'atlar ichida kino san'ati ham muhim o'rin egallay boshladi. Xorazmda san'atning bu turini vujudga kelishi va rivojlanishi mashhur fotograf Xudoybergan Devonov (1878 – 1940) nomi bilan bog'liqdir. U asrimizning boshlariga Xivaga kelgan sayyohlardan fotoapparat sotib oladi va tez orada mashhur fotosuratchi bo'lib yetishadi. X.Devonov inqilobdan ilgari "Turkiston ko'rinishlari", "Xiva va xivaliklar", keyinchalik esa "Qazuv", "Chiqir", "Ip yigirish", "Kustar usulda bo'z to'qish", "Paxta terish" kabi voqealarni ifodalovchi hujjatli – xronikal filmlar yaratdi. Xudoybergan Devonov o'zining bu faoliyatini umrining oxirigacha davom ettirdi va Butunittifoq fotografiya jamiyati "Sovkino" ning Respublikadagi maxsus muxbiri sifatida tinimsiz ijod qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Rajabov Q, Haydarov M. Turkiston tarixi. Toshkent. Universitet. 2002.
2. Matniyozov. M. Xorazm tarixi II-jild. Urganch. 1997.
3. Qo'shjonov O, Polvonov N. Xorazmdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va harakatlar. XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr birinchi choragi. T.: 2007
4. Abdullayev K. Yosh Xivaliklar. //Xiva, 1993.
5. Абдуллаев М. Победа народной советской революции в Хорезме. //Из истории Советского Узбекистана. Т.: Госиздат УзССР, 1956.
6. Abdurasulov A. Xiva. Т.: O'zbekiston, 1997. 142 bet.



7. Eshov B. O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. T.: "Yangi asr avlodi". 2015.
8. Данильевский Г.И. Описание Хивинского ханства. //ЗИРТО. Книга VI. 1851.
9. Джуманиязов Р. Хорезм. Краткий очерк политической и социально-экономической истории 1920-1990 г.г. Ургенч.: Фан, 1991.
10. Документы по районированию Средней Азии. Кн. 2. Территория и население Бухары и Хорезма. Часть 2. Хорезм. Ташкент: 1926.